

DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA NODAVLAT MAKTABGACHA  
TA'LIM TASHKILOTLARINING RIVOJLANISH TAMOYILLARI

Mongiyev Abdulhokim Ibragimovich

MTTDMQTMOI 1-bosqich tayanch  
doktoranti 13.00.07– Ta'lim menejmenti  
Toshkent viloyati pedagogik mahora  
markazi Akademik faolyatni  
muvofiqlashtirish bo'limi yetakchi  
mutaxassisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asosida faoliyat yuritayotgan nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining (MTT) rivojlanish tamoyillari chuqur tahlil qilinadi. Mamlakatda maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikning o'ziga xos shakli sifatida DXSh modeli ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik, ta'lim sifatini oshirish hamda ta'lim muassasalarining son va sifati bo'yicha erkin raqobat muhitini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shu jihatdan olib qaralganda, DXSh asosidagi nodavlat MTTlarning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan asosiy rivojlanish tamoyillari – qonuniylik, ochiqlik, samaradorlik, innovatsion yondashuv, ijtimoiy adolat va monitoring tizimining mavjudligi alohida o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** davlat-xususiy sheriklik, maktabgacha ta'lim, nodavlat MTT, rivojlanish tamoyillari, boshqaruv modeli, ta'lim sifati

**Аннотация:** В данной статье всесторонне анализируются принципы развития негосударственных дошкольных образовательных учреждений (ДОУ), функционирующих на основе государственно-частного партнёрства (ГЧП). В процессе реформирования системы дошкольного образования в стране модель ГЧП, как особая форма сотрудничества между государственным и частным секторами, способствует социально-экономической стабильности, повышению качества образования, а также формированию конкурентной среды по количеству и качеству образовательных учреждений. В этом контексте подробно изучаются основные принципы развития негосударственных ДОУ, работающих на основе ГЧП, – законность, открытость, эффективность, инновационный подход, социальная справедливость и наличие системы мониторинга.

**Ключевые слова:** государственно-частное партнёрство, дошкольное образование, негосударственные ДОУ, принципы развития, модель управления, качество образования.

**Annotation:** This article provides an in-depth analysis of the development principles of non-governmental preschool educational institutions (PEIs) operating on the basis of public-private partnership (PPP). In the course of reforming the preschool education system in the country, the PPP model, as a specific form of cooperation between the public and private sectors, contributes to socio-economic stability, improvement of education quality, and the creation of a competitive environment in terms of both the number and quality of educational institutions. In this regard, the article examines the key development principles necessary for the effective operation of PPP-based non-governmental PEIs, including legality, transparency, efficiency, innovative approach, social justice, and the presence of a monitoring system.

**Keywords:** public-private partnership, preschool education, non-governmental PEI, development principles, management model, education quality.

**Kirish.**

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda ta'lim tizimini isloh qilish, jumladan, maktabgacha ta'lim qamrovini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish bo'yicha tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan islohotlar strategiyasida erta yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, ularning maktabga tayyorligini kuchaytirish va sifatli ta'lim muhitini yaratish dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Ayni paytda, davlat ta'lim muassasalari bilan bir qatorda, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu munosabat bilan, maktabgacha ta'lim tizimida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asosidagi nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatining ahamiyati ortib bormoqda.

Mamlakatimizda DXSh modelining joriy etilishi orqali ta'lim tizimini moliyalashtirish va boshqarishda yangicha yondashuvlar shakllanmoqda. Xususan, davlat tomonidan resurslar bilan ta'minlash, xususiy sektor tomonidan esa xizmat ko'rsatish, ta'lim muhiti yaratish va boshqaruvni amalga oshirish kabi funksiyalar bo'linib, ijtimoiy sheriklik asosida samarali ta'lim tizimi shakllantirilmoqda. Bu holat o'z navbatida maktabgacha ta'limda yangicha rivojlanish tamoyillarini yuzaga keltirmoqda.

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar, ularning huquqiy, boshqaruv va iqtisodiy asoslari, xalqaro tajribalar hamda amaliyotdagi natijalar tahlil qilinadi. Rivojlanish tamoyillari, xususan samaradorlik, ochiqlik, ijtimoiy adolat, innovatsionlik va monitoring tizimlari asosida nodavlat MTTLarning rivojlanish istiqbollari yoritiladi. Maqola yakunida esa mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

**Asosiy qism:** So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilish, ayniqsa maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini kengaytirish borasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda davlat bilan xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik alohida o'rin tutmoqda. Bunday hamkorlik turini ilmiy adabiyotlarda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) deb ataladi.

Umuman olganda, davlat-xususiy sheriklik deganda davlat va xususiy sektor o'rtasida uzoq muddatli, o'zaro manfaatli va shartnomaviy asosda quriladigan hamkorlik tushuniladi. Ushbu model nafaqat iqtisodiy sohalarda, balki ta'lim, sog'liqni saqlash, transport kabi ijtimoiy sohalarda ham samarali qo'llanilmoqda. Maktabgacha ta'lim sohasida esa bu yondashuv bog'chalarning sonini ko'paytirish, ularni jihozlash, boshqaruv tizimini takomillashtirish va ta'lim sifatini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklikni huquqiy jihatdan tartibga solish bo'yicha bir nechta muhim hujjatlar mavjud. Jumladan, 2019-yil 10-mayda qabul qilingan "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonun ushbu sohadagi asosiy me'yoriy hujjat hisoblanadi. Ushbu qonunda DXShning tamoyillari, tomonlarning majburiyatlari, shartnoma tuzish tartibi va boshqa qoidalar belgilab berilgan. Shuningdek, 2024-yil 30-sentyabrda Prezident tomonidan imzolangan PF-152-sonli Farmon asosida ta'lim sifatini oshirish va maktabgacha ta'limda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish yo'nalishlari aniqlab berilgan. Bu farmonda davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat MTTLar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularga subsidiya ajratish, yer ajratish va boshqa imkoniyatlar haqida aniq ko'rsatmalar mavjud. Davlat-xususiy sheriklik doirasidagi hamkorlikda ishtirok etuvchi tomonlarning roli ham aniqlashtirilgan. Davlat organlari — xususan Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi yoki mahalliy hokimliklar — yer ajratish, nazorat

qilish va metodik yordam ko'rsatish bilan shug'ullanadi. Xususiyl tadbirkor esa bog'chani qurish, ta'lim xizmatini ko'rsatish va uni boshqarish bilan shug'ullanadi. Bu ikki tomonning imkoniyatlari uyg'unlashganda, natijada bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrovi ortadi, xizmat sifati yaxshilanadi, oilalarga esa tanlov imkoniyati yaratiladi.

Bugungi kunda ta'lim tizimining eng muhim bo'g'inlaridan biri bo'lgan maktabgacha ta'lim sohasida nodavlat tashkilotlar soni yildan-yilga oshib bormoqda. Bu esa davlat tomonidan yaratilgan qulay sharoitlar, huquqiy asoslarning takomillashuvi va xususiyl sektorga bo'lgan ishonch natijasidir. Shu sababli nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTTlar)ni rivojlantirishda qat'iy amal qilinishi lozim bo'lgan tamoyillarni aniqlash va ularni amaliyotga tatbiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Birinchi navbatda, samaradorlik va natijadorlik tamoyiliga alohida e'tibor qaratish lozim. Ya'ni, tashkilot faoliyati samarali bo'lishi, belgilangan maqsadlarga erishish, bolalarning rivojlanish darajasi va ota-onalarning qoniqish darajasi orqali baholanadi. Bu tamoyilni ta'lim jarayonida aniq mezonlar va indikatorlar asosida kuzatish mumkin.

Ikkinchidan, qonuniylk va ochiqlik tamoyili ham dolzarbdir. Nodavlat bog'chalarining faoliyati qonun asosida, ya'ni akkreditatsiyadan o'tgan holda, belgilangan talablarga amal qilgan tarzda olib borilishi kerak. Shu bilan birga, ular moliyaviyl va pedagogik faoliyatini ochiq tarzda yuritishi, davlatga va ota-onalarga hisobot berib borishi maqsadga muvofiq.

Uchinchi muhim tamoyil — bu ijtimoiyl adolat va imkoniyatlarning tengligi. Davlat vaucheri yoki subsidiya asosida kam ta'minlangan oilalar farzandlariga nodavlat MTT xizmatlaridan foydalanish imkonini yaratish orqali ta'limda tenglikka erishish mumkin. Bu esa nafaqat ta'lim tizimini ijtimoiyl adolatli qiladi, balki qamrov darajasini ham oshiradi.

Shuningdek, innovatsion yondashuv va yangilikka ochiqlik tamoyili ham nodavlat MTTlarning rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Ko'pgina xususiyl bog'chalar zamonaviyl o'quv metodikalari, STEAM, Montessori, Tez o'rganish texnologiyalari, axborot texnologiyalarini o'z faoliyatiga tatbiq qilmoqda. Bu esa ularni raqobatbardosh qiladi va sifatni oshiradi.

Yana bir tamoyil bu — doimiy monitoring va baholash tizimi. Har qanday nodavlat ta'lim tashkiloti sifatni oshirish uchun o'z faoliyatini doimiy baholab borishi, mustaqil ekspertiza yoki ota-onalar fikri asosida tahlil qilishga tayyor bo'lishi kerak. Aynan shu tamoyil orqali muammolar erta aniqlanadi va hal qilinadi. Maktabgacha ta'limda davlat-xususiyl sheriklikni rivojlantirish bo'yicha jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, davlat va xususiyl sektor o'rtasidagi samarali hamkorlik ta'lim sifatini oshirish, xizmat ko'rsatish ko'lamini kengaytirish va innovatsiyalarni joriyl etish imkonini beradi. Turli davlatlarda bu model turlicha shakllangan bo'lsa-da, ularning umumiy jihati — bolalarning ta'limga bo'lgan kirish imkoniyatini kengaytirish va sifatli xizmat ko'rsatishdir.

Masalan, Buyuk Britaniyada "Free Schools" va "Academy" modeli orqali xususiyl tashabbus asosida bog'chalar ochishga ruxsat beriladi, biroq ular davlat ta'lim standartlariga qat'iy rioya qilishi kerak. Davlat bu bog'chalarga mablag' ajratadi, lekin boshqaruv mustaqil qoladi.

Singapurda esa maktabgacha ta'limning aksariyati xususiyl sektor tomonidan tashkil etilgan, ammo ular davlatdan subsidiya, grant va o'quv dasturlari ko'rinishida yordam oladi. Davlat o'z navbatida barcha MTTlar faoliyatini sifat nazoratidan o'tkazib boradi. Shu orqali xususiyl va davlat manfaatlari muvozanatda saqlanadi.

## **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, davlat-xususiy sheriklik asosida faoliyat yuritayotgan nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas bo'g'ini sifatida shakllanmoqda. Biroq ularning faoliyatida ta'lim sifatini boshqarish bo'yicha izchil va samarali tizimning mavjud emasligi muammoli holatlarni yuzaga keltirmoqda. Sifat menejmenti jarayonida normativ-huquqiy asoslar, baholash mezonlari, monitoring mexanizmlari va pedagogik resurslar tizimlashtirilgan holda faoliyat yuritmagani bois, bu tashkilotlarda ta'lim samaradorligining hududlararo farqlari kuzatilmoqda.

Tadqiqot natijalari ta'lim sifatini boshqarishda kompleks yondashuvlar zarurligini ko'rsatdi. Xususan, sifat ko'rsatkichlarini aniqlovchi indikatorlar tizimini ishlab chiqish, DXSh doirasida shaffof va ochiq monitoring mexanizmlarini joriy etish, hamda raqamli texnologiyalar asosida baholash platformalarini ishlab chiqish lozim. Shuningdek, xorijiy tajribalarga asoslangan holda ta'lim sifatini mustahkamlovchi modellarni mahalliy sharoitlarga moslashtirish ham muhim vazifa sanaladi.

Maqolada ilgari surilgan taklif va xulosalar davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi hamda maktabgacha ta'lim sohasida barqaror va raqobatbardosh muhitni shakllantirishga hissa qo'shadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi. (2019). **“Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida”gi Qonun.** 2019-yil 10-may.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2024). **PF–152-son Farmon** — Ta'lim sifatini oshirish va maktabgacha ta'limda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2024-yil 30-sentyabr.
3. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. (2023). **Maktabgacha ta'lim tizimida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish bo'yicha metodik qo'llanma.** Toshkent.
4. Abdurahmonov, Q. (2021). **Ta'lim menejmenti asoslari.** Toshkent: “Fan va texnologiya”.
5. Yo'ldoshev, J., & Hasanov, S. (2020). **Maktabgacha ta'limda boshqaruv va monitoring tizimlari.** Toshkent: Oliy ta'lim nashriyoti.